

“TASDIQLAYMAN”

Mirzo Ulug‘bek nomidagi
Samarqand davlat arxitektura-qurilish
universiteti rektori

Ch.I. Turkyilmaz
“10” dekabr 2023 yil

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil
24 noyabrdagi 507-sonli buyrug‘iga asosan Mirzo Ulug‘bek nomidagi
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti talabalarining qishki ta’til
davrini mazmunli o‘tkazish maqsadida Ingliz tili fanidan online olimpiadani
videoroliklar ko‘rik-tanlovi shaklida tashkil etish, o‘tkazish va g‘oliblarni tanlab
olish tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM**

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu Nizom universitet talabalarining xorijiy tillarga bo‘lgan qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash, ularda tillarni o‘rganishga bo‘lgan qobiliyatini rivojlantirish maqsadida Ingliz tili fanidan o‘tkaziladigan **“How I will spend my winter holidays this year”** nomli videoroliklar ko‘rik-tanlovi (keyingi o‘rinlarda ko‘rik-tanlov deb yuritiladi) tashkil etishni, o‘tkazish tartibini, videoroliklarni qabul qilish hamda baholash mezonlari va metodikasini belgilaydi.

2. Mazkur ko‘rik-tanlov Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti tomonidan tashkil etiladi, o‘tkaziladi hamda g‘oliblari aniqlanadi.

3. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

3.1. **“How I will spend my winter holidays this year” videoroliklar ko‘rik-tanlovi** – universitet talabalarining qishki ta’tilni qiziqarli va mazmunli o‘tkazishlari hamda ularning xorijiy tillarda ijodiy va kreativ fikrlashlarini rivojlantirish maqsadida o‘tkaziladigan ko‘rik-tanlov.

3.2. **Tashkilotchilar** – Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti Xorijiy tillar kafedrasini (keyingi o‘rinlarda tashkilotchilar deb yuritiladi).

3.3. **Ishtirokchi** – hozirgi kunda universitetning kunduzgi va sirtqi bo‘limida tahsil olayotgan 1-4 kurs talabalari (keyingi o‘rinlarda ishtirokchi).

3.4. **Ko‘rik-tanlov rasmiy veb-sayti** – ko‘rik-tanlov to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirib boriladigan www.samdaqu.edu.uz adresi orqali faoliyat yuritadigan universitet saytida ko‘rik-tanlovga doir barcha yangiliklar joylashtiriladi.

3.5. **Ko‘rik-tanlov pochta manzili** – m.kenjaev@samdaqu.edu.uz ishtirokchi talaba tayyor videoroligini yuboradigan va qabul qiluvchi korporativ pochta manzili.

3.6. **Ko‘rik-tanlov komissiyasi** – ko‘rik-tanlov tashkilotchisi tomonidan ko‘rik-tanlov boshlanishidan oldin tashkil etiladigan tegishli bo‘lim va kafedralar tomonidan

belgilangan vakillardan tashkil topgan talabalar ishini baholash va g'oliblarni aniqlash vakolatiga ega kollegial tuzilma (1-ilova).

3.7. **G'olib** – baholash mezonlari asosida ko'rik-tanlov komissiya tomonidan eng yuqori ball qo'yilgan va eng yaxshi videorolik tayyorlagan ishtirokchi.

4. **Ko'rik-tanlov maqsadi** – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 24 noyabrdagi 507-sonli buyrug'iga asosan Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti talabalarining qishki ta'til davrini qiziqarli va mazmunli o'tkazish.

5. Ko'rik-tanlov tashkilotchilari to'g'risidagi ma'lumotlar, ko'rik-tanlov qoidalari va shartlari, qaysi manzilga yuborilishi to'g'risidagi barcha ma'lumotlar universitet rasmiy vebsaytiga joylashtiriladi.

5.1. Tashkilotchilar tanlov qoidalarini o'z ixtiyori bilan bir tomonlama o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi va ushbu o'zgartirishlar universitet rasmiy vebsaytida e'lon qilish orqali amalga oshiriladi. Amalga oshirilgan o'zgarishlar universitet rasmiy vebsaytida e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

II. KO'RIK-TANLOV YO'NALISHLARI

6. Ko'rik-tanlovda videoroliklar quyidagi yo'nalish bo'yicha qabul qilinadi:

6.1. "How I will spend my winter holidays this year"

III. KO'RIK-TANLOV ISHTIROKCHILARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

7. Ko'rik-tanlovda ishtirokchilarga qo'yiladigan talablar:

7.1. Universitetning kunduzgi va sirtqi bo'limida tahsil olayotgan 1-4 kurs talabalari:

- har bir talaba bitta videorolik bilan ishtirok etishi mumkin;
- videorolikni yaratishda boshqa roliklardan foydalanish qat'iyan man etiladi;
- har bir ishtirokchi videorolik uchun javobgar va videorolikda o'zi ishtirok etishi

kerak;

- ikkita ishtirokchi birgalikda yoki jamoa bo'lib ishtirok etishi taqiqlanadi.

7.2. Taqdim etiladigan videoroliklar uchun quyidagi talablar mavjud:

- davomiyligi eng kamida 3 daqiqadan 5 daqiqagacha davom etishi shart;
- formati mp4 (FullHD 1920x1080), albom shaklda bo'lishi lozim.
- ovoz va video sifati yuqori darajada bo'lishi kerak;

Shunday videoroliklar qabul qilinadi:

Albom shaklida

Bunday videoroliklar qabul qilinmaydi:

Video yo'q	Video bor	Video yo'q	Kitob shaklida
------------	-----------	------------	----------------

7.3. Ko'rik-tanlovga yuborilgan videoroliklar quyidagi maqsad va vazifalarni o'z ichiga olishi kerak:

- ta'til davomida qayerda, qanday qiziqarli mashg'ulotlar bajarganligini yoritish orqali xorijiy tillarni o'rganishga targ'ib qilish;
- kundalik va turmush tarziga qo'llay oladigan va qulay tushunarli bo'lishi;
- kreativ bo'lishi;
- videorolikda qonunchilikka va odob-ahloqqa zid bo'lgan lavhalar bo'lmasligi lozim.

IV. KO'RIK-TANLOTNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TARTIBI

8. Ko'rik-tanlov har bir ishtirokchiga qishki ta'tilni qayerda va qanday qiziqarli mashg'ulotlar bajarganligini ingliz tilida yoritish uchun videoroliklarni ishlab chiqishga imkoniyat beradi.

9. Ko'rik-tanlovda ishtirok etish uchun ishtirokchilar tanlov pochta manziliga talab darajasida tayyorlangan videorolikni F.I.Sh., ta'lim shakli, yo'nalishi va guruh nomi bilan saqlab yuborishi lozim.

9.1. Ko'rik-tanlovga 2023 yil 25 dekabr soat 8.00 dan start beriladi.

9.2. Ko'rik-tanlov 2024 yil 3 yanvar soat 16.00 ga qadar davom etadi.

9.3. Ishtirokchilar tomonidan belgilangan muddatlarda topshirilgan videoroliklar 1 kun muddatda ko'rik-tanlov komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

9.4. Ko'rik-tanlov komissiyasi tomonidan g'olib deb topilgan ishtirokchilarni taqdirlash marosimi 2024-yil 10 yanvarda bo'lib o'tadi.

V. KO'RIK-TANLOV G'OLIBLARINI ANIQLASH

10. Ko'rik-tanlov davomida ishtirokchi ko'rsatilgan yo'nalish doirasida videorolik tayyorlashi kerak.

11. Ko'rsatilgan yo'nalish bo'yicha tayyorlangan videorolik ko'rik-tanlov komissiyasiga, ko'rik-tanlovning yakuniy kuniga qadar ko'rik-tanlov nizomiga muvofiq ko'rsatilgan vaqtdan kechiktirmasdan taqdim etilishi zarur.

12. Ko'rik-tanlovda g'olib bo'lganlarni aniqlash ikki bosqichda amalga oshiriladi: 1-bosqichda taqdim etilgan videoroliklar texnik ekspertizadan o'tkaziladi. Bunda ishtirokchilar to'g'risidagi ma'lumotlar va videoroliklar ushbu nizomning 7.1-, 7.2- va 7.3-bandlarida belgilangan talablarga muvofiq topshirilganligi tekshiriladi. 2-bosqichda texnik ekspertizadan saralab olingan videoroliklar ko'rik-tanlov komissiyasi tomonidan mazkur nizomning 14-bandida belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadi hamda eng yuqori ball to'plagan g'oliblar aniqlanadi.

13. Ko'rik-tanlov komissiyasi tomonidan baholash uchun taqdim etilgan videoroliklar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- videorolik reglament talablariga javob berishi;
- videorolikga jiddiy va kreativ yondashilgan bo'lishi;
- videorolik e'lon qilingan tanlov yo'nalishiga mos kelishi kerak.

14. Videoroliklarni baholash ko'rik-tanlov ishchi guruh a'zolari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan amalga oshiriladi.

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1.	Videorolikda ko'rik-tanlov yo'nalishi mazmun-mohiyatini to'laqonli ochib berilganligi	20 ballgacha
2.	Videorolikning mazmuni, unga bog'liq bo'lgan jarayonlarni kreativ nuqtai nazardan aks etganlik darajasi	15 ballgacha
3.	Videorolikdagi mantiqiylik, ishtirokchining dunyoqarashi fikrlash doirasi va e'tiborni jalb qila olishi	15 ballgacha
4.	Videorolik o'ziga xos bo'lishi va kundalik hayotda foydalanish uchun qulay bo'lishi	15 ballgacha
5.	Videorolikning sifatliiligi va belgilangan vaqtda to'liq ochib berilganligi (ovoz, video, sifat)	20 ballgacha
6.	Videorolikning jozibadorligi, boshqa videolardan ajralib turishi	15 ballgacha
	Jami:	100 ball

15. Yakuniy baho ishtirokchi har bir baholash mezoni bo'yicha to'plagan ballarini qo'shish orqali hisoblanadi.

16. Har bir g'olibni aniqlash ko'rik-tanlov komissiyasining har bir a'zosi tomonidan videoroliklarni alohida baholash orqali amalga oshiriladi.

18. Baholar teng bo'lgan taqdirda, ko'rik-tanlov komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

19. Baholash natijalariga ko'ra tashkilotchi ko'rik-tanlov komissiyasi qarorining bayonnomasini tuzadi, u ko'rik-tanlov komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

20. G'oliblarni taqdirlash belgilangan muddatlarda Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti tomonidan amalga oshiriladi.

21. G'oliblarni rag'batlantirish.

- Belgilangan yo'nalish bo'yicha uchta g'olib aniqlanadi. (1-2-3-o'rin)

a) 1-o'rin uchun – faxriy yorliq, kitob va ingliz tili fan olimpiadasiga yo'llanma;

b) 2-o'rin uchun – faxriy yorliq va kitob;

c) 3-o'rin uchun – faxriy yorliq va kitob.

VI. YAKUNIY QOIDALAR

22. Ko'rik-tanlovda ishtirok etish ishtirokchilarning ushbu Nizomda belgilangan qoidalar va talablarga to'liq roziligini anglatadi. Ishtirokchi ushbu Nizomda belgilangan qoidalar yoki talablarni buzishi yoki ularni to'g'ri bajarishdan bosh tortishi ishtirokchi ko'rik-tanlovda qatnashishdan bosh tortishini anglatadi.

23. Ishtirok etish qoidalarini yoki ushbu Nizom bilan tartibga solinmagan masalalarni noaniq talqin qilishga imkon beradigan vaziyatlar yuzaga kelganda, bunday

sharhlash yoki tushuntirish bo'yicha yakuniy qaror to'g'ridan-to'g'ri va faqat ko'rik-tanlov tashkilotchilari tomonidan qabul qilinadi.

Xorijiy tillar kafedrasi mudiri

A handwritten signature in blue ink, consisting of several loops and a long horizontal stroke at the top, positioned above the name M.E. Kenjayev.

M.E. Kenjayev

Ingliz tili fanidan videoroliklar ko'rik-tanlovini tashkil etish, o'tkazish va g'oliblarni tanlab olish tartibi to'g'risidagi NIZOMga 1-ilova

“HOW I WILL SPEND MY WINTER HOLIDAYS THIS YEAR” VIDEOROLIKLAR KO'RIK-TANLOVINI O'TKAZISH BO'YICHA KOMISSIYA VA APELLATSIYA TARKIBI

T/r	F.I.Sh.	Ish joyi va lavozimi
BAHOLASH KOMISSIYASI TARKIBI		
1.	Kenjayev Mirzoxid Ergashevich	– Xorijiy tillar kafedrası mudiri, <i>komissiya raisi</i>
2.	Sayfullayev Umida Ulmaskulovna	– Xorijiy tillar kafedrası katta o'qituvchisi, <i>komissiya raisi o'rinbosari</i>
3.	Zayniyeva Nasiba Baxtiyarovna	– Xorijiy tillar kafedrası katta o'qituvchisi, <i>komissiya a'zosi</i>
4.	Kultayeva Feruza Ergashovna	– Xorijiy tillar kafedrası katta o'qituvchisi, <i>komissiya a'zosi</i>
5.	Mamaraimov Davron Mamadaminovich	– Xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi, <i>komissiya a'zosi</i>
APELLATSIYA KOMISSIYASI TARKIBI		
1.	Gadoyev Abror Niyazovich	– Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, <i>apellatsiya komissiyasi raisi</i>
2.	Ibragimova Dildora Shamsiddinovna	– Xorijiy tillar kafedrası v.b.dotsenti, <i>apellatsiya komissiyasi raisi o'rinbosari</i>
3.	Yasakov Zikrilla Xayrullayevich	– Korrupsiyaga qarshi kurash, komplaens-nazorat tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i, <i>apellatsiya komissiyasi a'zosi</i>
4.	Buriyeva Sora Saloxitdinovna	– Xorijiy tillar kafedrası katta o'qituvchisi, <i>apellatsiya komissiyasi a'zosi</i>
5.	Kabilova Gulchexra Sattarovna	– Xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi, <i>apellatsiya komissiyasi a'zosi</i>